

Адҳамбек ЯНГИБОЕВ,
Ўзбекистон халқаро ислом академияси
магистранти

ҚУРЪОНИ КАРИМ ОЯТЛАРИДА КЎРИШ ВА ТИНГЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Inson uchun juda muhim bo'lgan bilish jarayolarining birinchisi sezgilardir. Sezgi bu bilishning dastlabki, muhim bosqichi bo'lib, biz sezgi a'zolarimiz orqali tashqi va ichki ta'sirlarni sezamiz va ularga qarshi javob reaksiyasini qaytaramiz. Bundan tashqari sezgi a'zolarimiz yordamida tashqi olamdagi narsa va hodisalar, ularning harakatlari, xossalarini, o'ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlarga ega bo'lamiz. Olimlar tomonidan tashqi sezgilarning asosan beshta turi, ya'ni ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va teri tuyish sezgilari ajratilgan. Qur'oni karimda kelgan sezgiga oid oyatlarni ko'radigan bo'lsak ularning bir qancha ma'nolarda kelganiga guvoh bo'lamiz.

Sezgi turlari ichida birinchi o'rinda turadiganlari, biz ma'lumot olishimiz uchun, olamni anglashimiz uchun ko'proq kerak bo'ladiganlari ehitish va ko'rish sezgilaridir. Qur'oni karimdagi sezgiga oid oyatlarning aksariyati mana shu ikki sezgi turiga oid oyatlar bo'lib, ko'p o'rinlarda birgalikda zikr qilinadi. Bilamizki, Alloh taolo bandalarni yaratishidan maqsad ularni bu dunyoda sinashdan iboratdir. Insonni imtihon qilib, sinab ko'rish unga ato qilingan aqli va idrokiga asoslangandir. Shuning uchun ham Alloh taolo insonga idrok qilsin, fikr yuritsin, eshitsin va anglasin deb, quloqni, ko'zlaru qalblarni, eshitish va ko'rish qobiliyatini berdi. Bu haqda "Mo'minuun" surasining 78-oyatida, "Inson" surasining 2-oyatida shunday deyiladi.¹

¹ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. "Тафсири ҳилол". 6 жилд. – Т.: Ҳилол, 2018.

U zot sizga quloqni, ko'zlaru qalblarni paydo qilgan zot. Naqadar oz shukr qilursiz!

Albatta, Biz insonni aralash nutfadan yaratdik. Sinash uchun, bas, uni eshitadigan, ko'radigan qildik.

Yuqorida aytganimizdek, Alloh taolo bu ikki sezgi organlarini ko'p o'rinlarda birga zikr qilish bilan birga deyarli barcha o'rinlarda eshitishni ko'rishdan oldin aytib o'tadi. Bu holatga psixologik jihatdan qaraydigan bo'lsak, eshitish inson uchun ko'rishdan ham muhimroq ekanligini ko'ramiz va bunga bir necha sabablar keltirib o'tish mumkin: Birinchidan, agar, inson ko'rish ne'matini yo'qotsa bilim olishi mumkin, lekin eshitish ne'matini yo'qotgan kishi ilm olishda qiynaladi. Bunga ko'zi ojiz kishi va kar kishining bilim olish jarayonini misol keltirish mumkin. Ko'rish sezgisining yo'qolishi boshqa sezgi faoliyatlarining kuchayishiga sabab bo'lsa, eshitish sezgisining yo'qolishi esa nutq, diqqat va tafakkur kabi jarayonlarning susayishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari eshitish sezgisi aql bilan bog'liq jarayondir. Bizdagi eshitishning yo'qligi aqliy rivojlanishdan ortda qolishimizga sabab bo'ladi. Qur'oni karimda, "Mulk" surasining 10-oyatida, eshitish bilan aql yuritishni birga zikr qilinadi.

Va ular: "Agar e'tibor qulog'i bilan eshitganimizda yoki aqlni ishlatganimizda edi, do'zaxiylar orasida bo'lmagan bo'lar edik", derlar.

Ikkinchidan, homila paytida bola 24-haftada tovushlarni eshita boshlaydi va 28-haftagacha esa

ko'rish sezgisi shakllanadi. Bola tug'ilgandan so'ng, 4 haftada tovushlarni eshita boshlaydi va 9,12 haftalik bo'lganda ovozlarning qayerdan kelayotganini farqlay oladi. Bola bir oylik bo'lganida katta predmetlarni, 3,4 oyligida esa kichkina predmetlarni ham ajrata boshlaydi. Buni Alloh taolo Qur'oni karimda bayon qilib qo'ygan.

“...Va bachadonlarda xohlagan narsamizni ma'lum muddatgacha qaror toptirarmiz. ...” (Haj surasi 5-oyat).

U zot sizga quloqni, ko'zlaru qalblarni paydo qilgan zot. Naqadar oz shukr qilursiz. (Mu'minun surasi 78-oyat).

Uchinchidan, quloq eshitish vazifasini barcha holatlarda (qorong'u, uyqu, pana joy va boshqalar) ado etadi. Ko'z esa inson uxlaganda, qorong'uda va shu kabi holatlarda o'z vazifasini bajarishdan to'siladi. Kahf surasining 11-oyatida shunday marhamat qilinadi.

Bas kahfda ularning quloqlariga bir necha yillar (parda) urdik.

Ushbu oyatdagi “quloqqa parda urdi” degani, qulog'ini eshitmaydigan qilib qo'ydi, deganidir. Yigitlar qochib kelib g'orga joylashganlarida, Alloh taolo ularning quloqlarini eshitmaydigan qilib qo'ygan. Uxlagan odam biror ovozni eshitsa uyg'onib ketadi va bu yigitlar eshitmagani sababli uyg'onishmadi.²

Chaqmoq ularning ko'zini olib qo'yay deydi. Yorishgan paytda yurishar, qorong'i bo'lsa, to'xtashar. Agar Alloh xohlasa, ularning ko'zu quloqlarini ketkazur. Albatta, Alloh har bir narsaga qodirdir.” (Baqara surasi 20-oyat).

Ushbu oyat munofiqarning holatini o'xshatish orqali ko'rsatib beradi. Ya'ni qorong'uda inson hech narsani ko'ra olmaganligi sababli yura olmaydi, yursa ham yoki adashadi, yoki biror chohga tushib ketadi.

To'rtinchidan, biz barcha tarafdin kelgan ovozlarni eshita olamiz, ko'zimiz bilan esa faqat

qaragan tomonimizdagi narsalarni ko'ra olamiz. Bundan tashqari, bugungi kunda ham inson eshitish yordamida ko'rishga qaraganda ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi isbotlangan.

Qur'oni karimda kelgan eshitish va ko'rishga oid oyatlarning tasnifi va tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, ularni ma'no va mazmun jihatidan uch turga ajratish mumkin. Bular Alloh taoloning oliy sifatleri bo'lgan Samii' (eshitish) va Basir (ko'rish) sifatlariga oid oyatlar, mahluqotlarga (Alloh taolo yaratgan narsalar) oid bo'lib, keng ma'noda kelgan oyatlar va mahluqotlarga xos bo'lib tor ma'noda kelgan oyatlardir.

Alloh taoloning oliy sifatleri va ismlari haqida Qur'oni karimda kelgan ko'pgina oyatlar mavjud.

Allohnin g'o'zal ismlari bordir. Bas, Unga o'sha (ism)lar ila duo qiling va Uning ismlaridan og'adiganlarni tek qo'ying.

Yaqinda qilgan amallariga yarasha jazolanurlar. (A'rof surasi 180-oyat).


Alloh taoloning g'o'zal ismlari 99 ta bo'lib, har biri o'ziga xos ma'noga ega. Ana shu Alloh taoloning g'o'zal ismlaridan Samii' (eshitish) va Basir (ko'rish) sifatlariga oid bir qancha oyatlar mavjud. As-samii'ning ma'nosi shuki Alloh taolo

barcha zohiriy va botiniy, maxfiy va jaxriy ovozlarni eshitadi. Uning

eshitishin g chegarasi yo'q va eshitishi bizlar kabi quloq bilan bo'lmay, balki, bir vaqtning o'zida barcha jahriy va maxfiy ovozlarni eshita oladi.

U: “Robbim osmonu yerdagi so'zni bilur. U eshituvchi va biluvchi Zotdir”, dedi. (Anbiyo surasi 4-oyat).

Kofirlar o'zaro pichirlashib Muhammad sollallohu alayhi vasallamni yomonlayotgan vaqtlarida U zot Alloh taolo eng yaxshi eshituvchi va eng aniq bilguvchi Zot ekanini, U zot osmonu yerdagi hamma so'zlarni eshitib turishini kofirlarga eslatib qo'ydilar. Bundan: Alloh taolo mushriklarning o'zaro pichirlashlashib gapirgan gaplarini ham eshitib turgani tushuniladi. Bundan



² Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. “Тафсири хилол”. 6 жилд. – Т.: Хилол, 2018.

tashqari, Alloh taoloning bu sifati duo qiluvchi solih bandalarning duolarini eshitib uni ijobat qilish ma'nosida ham keladi.

Keksalik paytimda menga Ismoil va Is'hoqni ato qilgan Allohga hamd bo'lsin. Albatta, Robbim duoni eshituvchi Zotdir. (Ibrohim surasi 39-oyat).

Ushbu oyatda Ibrohim alayhissalom 90 yoshga kirganlarida farzand so'rab Allohga duo qilganida u kishiga Ismoil va Ishoq alayhissalomlarni bergan voqea yoritilgan. Alloh taoloning ushbu ismi Qur'oni karimda 45 o'rinda zikr qilinib, shundan 30 dan ko'proq o'rinlarda A'liim sifati bilan birga kelgan va bu U zotning eshitish bilan birga barcha jarayonlarni, holatlarni bilib anglab turshini bildiradi.

Imronning xotini: “ Ey Robbim! Albatta, men qornimdagini o'zinga xolis nazr qildim. Bas, mendan qabul et. Albatta, Sening o'zing eshituvchi, bilguvchi zotsan”, deganini esla! (Oli Imron surasi 35-oyat).

Alloh taolo “ Basiir ” sifati bilan osmonlaru yerdagi barcha narsalarni ko'radi, hattoki qorong'u tunda, qop – qora toshning ustidagi qora chumolining o'rmalaganini ham ko'ra oladi, U zot zohir bo'lib turgan narsalarni ham, botiniy narsalarni ham, insonning qalbidagi ko'rinmas hislarni ham ko'ra oladi. U zotning ko'rish sezgisida hech qanaqa chegara yo'q va barcha maxfiy va oshkor narsalarni bir paytning o'zida ko'rib turadi va bu ko'rish bizlardek ko'z bilan emas balki O'zining “Basir” sifati bilandir.

U, osmonlaru yerni olti kunda yaratib, so'ngra arshni egallagan zotdir. Yerga nima kirganini ham, undan nima chiqqanini ham, osmondan nima tushganini ham, unga nima chiqqanini ham biladir. U, qayerda bo'lsangiz ham, siz bilan birga. Alloh qilayotgan amallaringizni ko'rib turguvchidair. (Hadid surasi 4-oyat).

Bandalarga xos bo'lgan va keng ma'noda, ya'ni eshitish yoki ko'rish bilan birga eshitgan va ko'rgan narsalarini tushunib unga amal qilish, u haqda fikr yuritish, tadabbur qilish ma'nosidagi oyatlar.

Albatta, tinglay oladiganlaringina qabu qilurlar. O'liklarni esa, Alloh tiriltirur va

so'ngra Uning o'ziga qaytarilurlar. (Anom surasi 36-oyat).

Ushbu oyatdagi tinglay olishning ma'nosi faqat eshitishgina emas, balki Alloh taolodan kelgan da'vatni, bayonni – Qur'onni tinglay olish, tinglagan narsalarini tushunib, o'zlariga singdirib, ularga amal qilishdir. Ushbu oyatdagi eshitish keng ma'noda kelgan. Xuddi shunday ko'rib turib iymon keltirmagan, amal qilmagan munofiqlarni ko'rmaydigan kishilarga tenglashtirib, buni ajoyib zarbulmasal usulida vasflab ko'rsatuvchi quyidagi oyatda ham munofiqlar ko'rish bilan birga unga iymon keltirmasligi va amal qilmasligi kabi ma'nolarda kelgan.

Ular misoli, yoqqan o'ti endi atrofini yoritganida, Alloh nurlarini ketkazib, qorong'u zulmatlarda qoldirgan kishilarga o'zsharlar. Ular ko'rmaslar. (Baqara surasi 17-oyat).

Insonlarga xos bo'lgan va to'g'ridan to'g'ri eshitish va ko'rish ma'nosidagi oyatlarda inson va boshqa mahluqotlarning ko'rish holati bayon qilinadi. Ushbu mazmundagi oyatlar ham Qur'oni karimda ko'plab uchraydi.

Ular unda bexuda so'z eshitmaslar, illo, salom eshiturlar. Ularga u yerda ertayu kech rizqlari kelib turur. (Maryam surasi 62-oyat).

Ushbu oyatda mo'minlarning jannatdagi holati bayon qilingan. Ya'ni ular u yerda biror bexuda so'z eshitmaydilar. Eshitiladigan sado faqat “salom” – tabrik, tinchlik, omonlik, xursandchilik so'zlaridan iborat bo'ladi. Xuddi shunday, borliqdagi narsalarni ko'rish va uning mazmunini aks ettirgan oyatlar mavjud.

Agar xohlasak, ko'zlarini tep – tekis qilib qo'yurmiz. Bas, ular yo'lga shoshilurlar. Ammo, qanday ham ko'rsinlar. (Yaasiin surasi 66-oyat).

Yuqoridagi ma'lumotlardan, misollardan ma'lum bo'ladiki Alloh taolo bandalariga in'om qilgan har bir ne'mati bebaho va hikmatlarga boydir. Bundan tashqari Qur'oni karimdan har bir zamonda har bir savolga javob topa olish mumkinligini, qaysi soha vakili bo'lishidan qat'iy nazar uni o'rganib Alloh taoloning naqadar olim, chevar Zot ekanligiga iqror bo'lishiga guvoh bo'lish mumkin bo'ladi. Shuningdek Qur'oni karimdagi har bir oyat, har bir so'z , hattoki har bir harf ham butun bir ma'noga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.